

**YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA DUNYOVİY VA İJTİMOİY
DAVLATNING HUQUQIY TUSHUNCHASI**

*Abdullaev Abbosxon Sultonboy o‘g‘li
Toshkent shahar Yashnabod tumani IIB xodimi
Tel: (93) 110-02-00
Email: Murodsultanov084@gmail.com*

Annotatsiya

Yangi O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi ijtimoiy siyosatda fikr bilan tilga olingan. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning yangilangan konsitutsiyasida dunyoviy va ijtimoiy davlatning huquqiy tushunchasi haqida tadqiqotchining mulohazalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat.

**СВЕТСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ В ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ
ПРАВОВОЕ ПОНЯТИЕ ГОСУДАРСТВА**

Аннотация

Новый Узбекистан-это суверенное, демократическое правовое, социальное и светское государство с республиканской формой правления. В социальной политике мысль о том, что Новый Узбекистан - это суверенное, демократическое правовое, социальное и светское государство с республиканской формой правления. В этой статье освещены мнения исследователя о правовом понятии светского и социального государства в обновленной Конституции Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, суверенный, демократическое, правовое, социальное, светское государство.

**SECULAR AND SOCIAL IN THE UPDATED CONSTITUTION THE
LEGAL CONCEPT OF THE STATE**

Abstract

Social policy emphasizes that New Uzbekistan is a sovereign, democratic, legal, social, and secular state with a republican form of government. This article highlights the researcher's views on the legal concept of a secular and social state in the updated Constitution of New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, sovereign, democratic, legal, social, secular state.

2023-yili may oyida yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasiga “dunyoviy va ijtimoiy davlat” ta’rifi kiritildi, o‘zbek xalqining farovon kelajagini ta’minlashga qaratilgan erkin bozor iqtisodining asoslari mustahkamlandi, intellektual mulkdan tortib inklyuziv ta’limgacha bo‘lgan muhim huquqlar kafolatlandi [1:1].

Dunyoviy davlat – davlat hokimiyati va boshqaruvdan din ajratilgan, boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki fuqarolik qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayaniilmaydigan davlatdir. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburlov kuchi bilan o‘rnatilmasligini, ularning davlatdan ayri ekanligini tavsiflaydi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi. Eng muhimi, dunyoviy davlat barcha dinlar uchun teng sharoitlar yaratib berish, fuqarolarga ta’lim olish, shaxsiy rivojlanish yo‘lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Dunyoviy davlatda ta’lim jamiyatga shaxsni shakllantirib beradi. Bu shaxs davlat olib borayotgan islohotlar jarayonlaridan xabardor, hamqadam va faol bo‘ladi, davlatga tayanch va tirkak bo‘ladi, shu tufayli jamiyat taraqqiy etadi.

Dunyoning ko‘pchilik davlatlari, xususan, rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, din dunyoviy davlat tuzumi bilan nafaqat murosa qilishi, balki umummilliy yuksalish yo‘lida u bilan samarali hamkorlik qilishi mumkin. Demokratik davlatlarda aholining ko‘pchilagini tashkil etadigan xalqning diniy e’tiqodiga ko‘rsatilgan izzat-hurmat bilan bir qatorda, tub etnoslar uchun noan’anaviy bo‘lgan, ammo fuqarolarning muayyan qismi e’tiqod qiladigan dinlar, qolaversa, hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikka bir xil munosabatning qaror topganligi - Qur’oni karimdagagi ibratli hikmatlardan "Dinda majburlash yo‘q" degan oyatning (Qur’on Baqara surasi, 256 oyat) chuqr insonparvarlik falsafasini yanada yorqinroq ochib beradi.

Internetdagi ikki yoki undan ortiq xotinga uylanish targ‘iboti sabab, qonuniy erxotinlikdan ko‘ra “sha’riy juftlik” munosabati avj olgan. O‘z navbatida majburiy ijro organlarida 425 mingdan ortiq aliment undirishga qaratilgan ijro hujjatlari mavjud. Bu umumiy hisobda millionlagan bolalarning alimentga kuni qolganligini anglatadi.

Yaqin keljakda, 40 million aholiga yetadigan davlatimizni faqat dunyoviy ilm qutqarishini esdan chiqarmaylik. Radikal va mutaasiblarning bir tomonlama qarashlari bilan murosa qilolmaymiz.

Faqat dunyoviy ta’limga asoslangan bilimlar bilangina taraqqiyotga erishamiz. Farzandlarimiz bugun kimyo, fizika, matematika kabi aniq fanlar, tarix, geografiya, ona tili va adabiyot kabi gumanitar fanlarning chuqr bilimdoniga aylanishi shart. Bizningcha, maktab muallimining asosiy vazifasi o‘quvchilarda fikrlash san’atining uyg‘onishiga erishish bo‘lmog‘i darkor. Ochig‘i shuki, fikrlamaydigan bola katta bo‘lsa, o‘z yo‘li va maqsadiga erishishi qiyin kechadi. Sababi, fikr — inson botiniy (ichki) qiyofasi aks etgan ko‘zgu hisoblanadi. Fikrsizlik — madaniyat kushandası,

ma’naviy o‘lim! Fikri yo‘q odamning qiyofasi ham bo‘lmaydi, deydilar. Fikr yo‘q joyda olomonlik va johillik ko‘payadi. Bu fikrimizga dunyoda bo‘lib o‘tayotgan favqulodda holatlar guvohlik beradi. Shu boisdan ham Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Demak insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda”[2:2].

Eng yomoni, o‘qimagan, fikrlashni xohlamagan kishining farzandlari va avlodlari ham shunday holga tushadi. O‘zbek maktab tizimining eng muhim nuqsoni, kamchiligi kundalik hayotimizda yoshlar o‘rtasida mustaqil fikriga ega bo‘lmaganlarning paydo bo‘layotgani hodisasi. Vaholanki, jamiyatda fikr bo‘lsagina, u yangilanadi. Qotib qolgan yoki bir xil qolipdagi qarashlar va fikrlar bilan yashash bir kuni jamiyatni ham iqtisodiy, ham ma’naviy tanazzulga olib keladi. Yevropa taraqqiy etishdan oldin uning fikri va san’ati, falsafasi taraqqiy etdi, u ijtimoiy fikrga turtki va quvvat berdi, xilmal-xil g‘oyalarga yo‘l ochildi. Bu g‘oyalalar ichida, albatta, iqtisodiy, texnikaviy, ilmiy g‘oyalalar ham bor edi. Yevropa ana shu fikrlarga va g‘oyalarga yo‘l berdi, uni amalgaloshirishga imkoniyat yaratdi. Yevropaliklar bilim, ma’rifat, tenglik, fidoyilikni ustuvor sanab, unga amal qilib, Sharq xalqlari ilm-fani, kitoblari ila oziqlanib, XVI asrlardan so‘ng, taraqqiy eta boshladilar. Biz esa ilm maktablari yaratgan o‘lkadan, xom ashyo yetishtiradigan kambag‘al mamlakatga aylandik. Nega bunday bo‘ldi, degan haqli savol tug‘iladi. Javoblar haddan ziyod ko‘p, ammo, jadid bobomiz Abdulla Avloniy “Kim nimani yaxshi ko‘rar?” nomli badiasida bundan yuz yil muqaddam jamiyatdagi holatni shunday baholagan: “Ehtimol, bizning xalq ilmu ma’rifatni, tarbiya va ta’limni, hunar va sanoatni yaxshi ko‘rar, deb o‘ylaydurg‘ondursiz? Yo‘q, bu fikringiz yanglish... Onalarimiz bilim va tarbiya o‘rniga erlari ila urushub-talashub qizlarig‘a mol qilmakni yaxshi ko‘rurlar”.

Biz dunyoviy davlatda yashayapmiz. Shu bilan bir vaqtida masalaning ikkinchi tomoniga ham katta ahamiyat berishimiz kerak. Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartishni maqsad qilib qo‘yuvchi respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi kuchlar ham yo‘q emas. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda ayrim noqonuniy diniy tashkilotlarning vakillari ochiqdan-ochiq Konstitutsion tuzumga zid bayonotlar bilan chiqayotgani, ularning yo‘liga to‘siq qo‘yilmayotgani ham bor gap[3:3].

“O‘zbekiston – dunyoviy davlat va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Xalqimizning referendum orqali bildirgan xohish-irodasi, qat’iy tanlovi ham shu!” - dedi Prezidentimiz. Bundan buyon ham millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar har bir fuqaroning vijdon erkinligi ta’minlanishi; barcha diniy konfessiyalar erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi; mamlakatimizda millatlar va konfessiyalar o‘rtasida totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash siyosati izchil davom ettirilishi ta’kidlandi. Jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga hech qachon yo‘l qo‘yilmaydi.

Bayon etilganlardan aniq va ravshan ko‘rinib turibdiki, jamiyatimiz yangilanishi dasturidagi dunyoviy davlat tushunchasi, dinning ijtimoiy-madaniy hayotdagি rolini aslo inkor etmaydi. Ayni paytda, diniy da’volar bilan niqoblangan, aslida xolis diniy e’tiqodga mutloq aloqasi yo‘q, jamiyatdagи hamjihatlik, millatlararo va dinlararo totuvlik, ijtimoiy - siyosiy barqarorlikka tahdid soluvchi har qanday urinishlarga dunyoviy davlat tuzumining mutlaqo murosasiz ekanini ham aniq-ravshan ko‘rsatib turadi. Prezident Farmoniga muvofiq 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” alohida yo’nalish sifatida belgilanib, maktab va oliy ta’limiga oid qator maqsadlar qabul qilindi[4:4].

Ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin. Ilm olish uchun mana shunday ulkan imkoniyatlar yaratilgan bir paytda ayniqlas, ota - onalar o‘z farzandlariga to‘g‘ri maslahatlar berib, ularni sog‘lom va baquvvat o‘sib - ulg‘ayishlari, ilmli, ma’rifatli bo‘lishlari uchun g‘amxo‘r bo‘lishlari kerak va ularni bu yo‘lda doimo qo‘llab – quvvatlab turishlari lozim. Ko‘pincha kattalarning loqaydligi, kaltabinligi va beparvoligi tufayli farzandlar turli bo‘lmag‘ur yo‘llarga kirib qoladi, yengil - yelpi yashashga o‘rganadi. Ilmsizlik va jaholat - insoniyatni tubanlikka, halokatga olib boradi. Dunyoning obodligi, bardavomligi va baxt saodati ham ilm, ma’rifat bilan chambarchas bog‘liqligi hammamizga yaxshi ma’lum. Shuning uchun biz Yangilangan Konstitutsiyamizda belgilangan O’zbekistonning dunyoviy davlat degan maqomidan unumli foydalanishimiz, yoshlarni zamonaviy bilimlardan xabardor qilishimiz orqali mamlakatimiz farovonligiga erishishimiz mumkin.

Keyingi yillarda umumta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Davlatimiz rahbari qaroriga muvofiq, maktabgacha ta’lim tizimi yangitdan shakllantirilgani, maktab, akademik litseylar faoliyati takomillashuvi, xorijning oliy o‘quv dargohlari ochilib, oliy ta’limga qabul kvotalarining kengaytirilgani, ustoz-murabbiylarning moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirilgani jamiyatda muallimning obro‘ va nufuzini oshirib yubordi. Shuningdek, atoqli shoir-yozuvchilarning ijod maktablari, Prezident maktablari, Adiblar xiyoboni tashkil etildi. Darhaqiqat, jamiyat hayotida yangicha qarashlar, o‘ziga xos yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida kasbga o‘rgatish tizimi mehnat bozori talablariga moslashtirilmoqda. Oliy ta’limda ham nazariya va amaliyot birligiga erishish, bitiruvchilarni ish bilan ta’minalash borasida harakatlar boshlangan. Pirovardida, ushbu tashkiliy-huquqiy ishlarning natijasi O’zbekiston yalpi ichki mahsulotida tezroq namoyon bo‘lishi va xalqimiz farovonligining yuksalishiga xizmat qilajagiga ishonamiz.

Har bir mamlakatning taqdiri muallimga, ta’lim tizimining sifatiga bog‘liq. Zero,

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, o'qituvchi — kelajak bunyodkori! Ilm va ma'rifatsiz odam yo'lini yo'qotishi, orzularini ro'yobga chiqarishiga aqli va tajribasi yetishmasligini tarixdan yaxshi bilamiz. Shuning uchun Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli o'qituvchining jamiyatdagi qadr-qimmati yuksalmoqda, u dastyorlik va majburiy mehnatdan ozod etildi, uning qadrini to'kmoqchi bo'lganlar jazoga tortiladigan bo'ldi.

Maktab – bilim maskani. Bolalik va o'smirlikda olingen bilim umr bo'yi insonga do'st, hamroh bo'lib xizmat qiladi. Ilm – shaxs takomili, taraqqiyot yo'li demak. Allomalarimiz yozishadiki, bilimsizlik – barcha yomonliklar manbai, bilimsiz inson o'ziga eng katta yomonlikni tilagan bo'ladi. Bugungi o'quvchi yoki talaba, katta yoshdagagi kishi bilimdon bo'lsa, mamlakatimizda va jahonda ro'y berayotgan voqeahodisalarga xolis baho bera oladi, to'g'ri xulosa chiqaradi va o'z hayotini o'zgartirishga qodir bo'ladi.

Bilimli, ma'rifatli, keng fikrli bo'lishning asosiy omili kitob — baland cho'qqini egallashga qo'yilgan narvonlardir. Badiiy, o'quv, ilmiy kitob o'qish nafaqat dunyoqarashni kengaytiradi, balki dunyoviy savodxonligimizni oshirib, yozma va og'zaki nutqning boyishiga sababchi bo'ladi. Mutolaani yaxshi ko'radigan, madaniyatli kishi bilan suhbat qurish, o'zaro fikr almashish barchaga zavq, huzur bag'ishlaydi. Kitob o'qimaydigan odam o'zining emas, atrofdagilar, ko'chaning fikri bilan yashaydi, boshqalar ko'rsatmasiga asosan hayoti qanday o'tib ketganini bilmay qoladi. Yomon ko'chalarga kirib qolishi oson kechadi.

Mustaqillik yillarda bilim olish, kitobxonlik bobida ayrim muammolarga duch keldik. Xususan: mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy muammolarning mavjudligi; odamlarning kundalik hayot ehtiyojlaridan mablag'i ortmaganligi; ta'lim (maktab, kollej, institut) moddiy bazasining zaiflashganligi; bilimli, tajribali o'qituvchilarning ta'lim tizimidan butunlay ketib qolganligi; ta'limning nufuzi ancha tushib ketishi oqibatida o'smir-yoshlarning unga ehtiyoji so'nib borganligi, qiziqishi kamayganligi; ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarning rivojlanmaganligi; mamlakatimiz bozor munosabatlariga o'tishi jarayonida bu qiyinchilik oldida yoshlarimizning bilim olishga qiziqishi so'nganligi hamda kundalik hayot kechirish muammolariga o'ralashib qolganligi, albatta, o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bugun mamlakatimizda yana kitoblar mutolaasi madaniyatini, nashr etish va tarqatish ishini rivojlantirishga e'tibor kuchayganligi zamirida ham har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasi yotibdi. Shu o'rinda savol tug'iladi. "O'zbeklardan ham Nobel mukofoti sovrindorlari chiqishi mumkinmi?". Albatta, bu ketishda chiqadi. Chunki jamiyatda ilmga, ilmlilarga, o'qituvchilarga rag'bat tizimi yaratilayapti. Yurtimizda ilk marta tashkil etilgan Prezident maktablari, ijod maktablari, matematika maktablari bitiruvchilari bilimi, g'ayrati har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda, tez orada ushbu orzu-niyatlarimiz amalga oshadi, degan

umiddamiz. 2019 yil 1 sentyabrdan boshlab, mamlakatimizda Prezident maktablari ochildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va o‘qitish tizimini shakllantirish, ma’naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta’minlashdan iborat. Respublikaning 14 hududida bittadan ochilayotgan ushbu maktablarga umumta’lim muassasalarining to‘rtinchi sinf bitiruvchilari orasidan qobiliyatli hamda iqtidorli bolalar tanlov asosida qabul qilinmoqda. Prezident maktablariga qabul Kembrij universiteti imtihon kengashi (Buyuk Britaniya) tomonidan o‘tkazilmoqda. Eng muhim, bugun shu dargohlarni bitirib, xorijda tahsil olayotganlarni yurtimizga qaytarishimiz, ularni tegishli sohalarda ish bilan ta’minlashga erishishimiz lozim. Buning uchun yoshlarda el-yurtga sadoqat, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini yuksaltirmog‘imiz lozim.

Millatimiz nimaga erishsa yoki qaysi jahhada oqsasa, uning ildizida ma’rifat va ta’limning taraqqiyoti yoki oqsashi yotibdi, deb aytish mumkin. Shu boisdan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan so‘ng, ta’lim va tarbiya borasida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni amalga oshirishni ko‘zlamoqda [5:5]. Buning sababi ma’lum: maktab, universitet — jamiyat ustuni! Demakki, mamlakatmiz yangilangan Konstitutsiyada dunyoviy davlat deb e’lon qilingan ekan, ta’lim va tarbiya ham dunyoviy bo‘lishi, dunyoviy fanlarni o‘zlashtirishga bor kuchimizni tashlamog‘imiz shart.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: yuridik adabiyotlar publish, 2023.-5b. 1-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O’zbekiston nashriyoti, 2022.-58 b.
3. Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omili. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi, 2019.-101b.
4. Sultonov T. Yangi O’zbekiston strategiyasi – ma’naviy rivojlanishning muhim dasturilamali. –T.: IQTISODIYOT, 2023.-30 b.
5. Saifnazarov I. Progmatizm – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining falsafasi sifatida. –T.: Oltin qalam nashriyoti, 2023.-1 b.
6. Sultanov, T. (2023). Socio-philosophical analysis of youth intellectual potential and human capital development. *Academia Science Repository*, 4(05), 1-10.
7. Saifnazarov, I. (2023). Yangi O’zbekiston: inson qadri ulug’langan yurt. *Tashkent: "Ilm-Ziyo-Zakovat" MChJ.* -209.
8. Aliev, B. (2023). Types and stages of the fight against corruption. *World Bulletin of Social Sciences*, 22, 63-65.

9. Saifnazarov, I. (2022). So'z erkinligi-Yangi O'zbekiston tayanchi [Freedom of speech is the pillar of New Uzbekistan, in Uzbek]. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Султанова, Ш. (2022). Ахоли миграцияси–жамият ривожининг омили. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 1068-1079.
11. Saifnazarov, I., & Umarjonov, S. (2022). State and religion relations in New Uzbekistan. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2, 414-424.
12. Sultanova, S. (2024). Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy mezonlari. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(1), 63-71.